

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA BAYNALMILAL SO‘ZLAR

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi

Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

Bahoraavazberdiyeva@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15634632>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tiliga o‘tgan asr davomida globallashuv jarayonining natijasida kirib kelgan baynalmilal so‘zlarning adabiy jarayonga ta‘sir doirasi o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Qahhorning ijodiy asarlari, ya‘ni qissa va hikoyalari misolida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, leksema, ingliz, fransuz, nemis, lotin tillari.

Abstract. This article examines the impact of international words that have entered the Uzbek language as a result of the globalization process over the past century on the literary process using the example of the creative works of Abdulla Qahhor, a prominent representative of Uzbek literature.

Keywords: globalization, lexeme, English, French, German, Latin languages.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние интернациональных слов, вошедших в узбекский язык в результате процесса глобализации за последнее столетие, на литературный процесс на примере творчества Абдуллы Каххора, выдающегося представителя узбекской литературы.

Ключевые слова: глобализация, лексема, английский, французский, немецкий, латинский языки.

Globalizatsiya – bu butun dunyo davlatlarining iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatdan bir-biriga yaqinlashishi jarayoni. Ushbu jarayon, tabiiyki, milliy tillarga hamda ularning qo‘llanilish doirasi va jamiyatdagi mavqeyiga bevosita ta‘sir o‘tkazadi. O‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda internet, ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro iqtisodiy aloqalar tufayli o‘zbek tiliga yangi so‘zlar kirib kelmoqda, ayrim iste‘molda mavjud bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanilish doirasi qisqarishi hamda ularning o‘rniga chet tilidan o‘zlashgan so‘zlardan noo‘rin muqobil sifatida foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun milliy tilni asrab-avaylash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu fikr globalizatsiya sharoitida ona tilimizni asrab-avaylash, uni rivojlantirish va xalqaro maydonda tanitish muhimligini ko‘rsatadi.

Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, ayrim so‘zlar baynalmilal, ya‘ni internatsional xarakterga ega bo‘lib, bunday so‘zlar, odatda ilm-fan, texnika, madaniyat, siyosat kabi sohlarda ishlatilib, ko‘p hollarda biror xalq yoki til ehtiyojlari yuzasidan emas, balki xalqaro va umumiy nuqtayi nazardan ishlatiladi. Bunday so‘zlar ko‘pincha lotin, yunon, arab, rus, fransuz tillaridan o‘zlashgan. Bizning tilimizga bu kabi so‘zlarning kirib kelishi sobiq tuzum davrida, asosan, ilm-fan, texnika bilan bog‘liq terminlar orqali sodir bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida ham bunday so‘zlardan o‘z ijodida keng foydalangan buyuk ijodkorlardan biri, shubhasiz, Abdulla Qahhordir.

Yozuvchining ko‘plab asarlarida baynalmilal, ya‘ni jahon hamjamiyatidagi xalqaro ilmiy terminlardan foydalanilgan bo‘lib, bu orqali ilm-fandan ijtimoiy hayot tashvishlari tufayli biroz uzoqlashgan o‘zbek kitobxonlariga ularning keng qamrov doirasini o‘zbek tilida ham ishlatish mumkinligini isbotladi.

Maqola davomida baynalmilal soʻzlarning Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasida oʻzbek tiliga ijobiy va salbiy taʼsirlarini tahlil qilamiz, til siyosati va kelajak istiqbollari haqida fikr yuritamiz.

Meditina (lot. *medicina* – vrachlik fani; dori-darmon)¹ bu soʻz tilimizga XX asrda kirib kelgunga qadar tib termini bilan bogʻliq boʻlgan va shu leksema maʼno doirasidagi soʻzlarga ishlatilgan. Oʻtgan asrda ilmiy unvonlar xalqaro darajadagi soʻzlar bilan qoʻllanishi natijasida bu soʻz xalqimizning leksik boyligidan ajralmas oʻrin egallagan: *Meditina fanlari kandidati Murod Ali sakkiz oydan beri oʻlim toʻshagida*....[1;3].

Kandidat (lot. *candidatus* – oq kiyim kiygan; mansabtalab)² bu soʻz oʻzbek tiliga sobiq tuzum tufayli tilimizda koʻproq dissertatsiya yoqlangandan keyin olinadigan ilmiy unvon sifatida qoʻllanilgan, xalqaro termin sifatida soʻzning maʼno doirasi ancha keng boʻlib, har qanday ishni bajarish uchun talabgor boʻlgan shaxslar kandidatlar hisoblanadi, eng avval ishlatilgan shakllari 1609-yillarga toʻgʻri keladi va ingliz ruhoniysi va tilshunosi Robert Koudrining shu yillarda yozilgan xatlarida uchraydi, XVII asr boshlarida siyosiy maʼno, oʻrtalarida tarixchilikda, asr oxiriga kelib esa universitetdagi daraja maʼnosida qoʻllana boshlagan³. Ijodkorning “Muhabbat” qissasida ham ilmiy unvon maʼnosi qoʻllanilgan: *Meditina fanlari kandidati Murod Ali*...

Zal (nem. *Saal* - katta xona, boʻlma) bu soʻzning ikki maʼnosi tilimizda faol ishlatiladi, OʻTIL da bu maʼnolar quyidagicha beriladi:

I. Idora, korxona, muassasalarda turli marosimlar oʻtkaziladigan katta keng xona.

II. Xususiy va koʻp qavatli xonadonlardagi eng katta mehmonxona.

Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasida esa soʻzning ikkinchi maʼnosi qoʻllangan, bu soʻz bizning tilimizga rus tili vositasida kirib kelgan: *...Tovush chiqarmay kuyunib yigʻladi-yu, zalga otildi* [1;3].

Injener bu soʻzi koʻpincha fransuz tili orqali dunyoga tarqalgan boʻlib, kelib chiqish jihatdan lotinchadagi *ingenium* soʻziga bogʻliq boʻlib, “tugʻma xislat, ijodkorlik, aql” degan maʼnolarni anglatadi. Bu soʻzning leksik maʼnosi tilimizda hozirda ham baʼzi oʻrinlarda faol isteʼmolda boʻlgan, muhandis soʻziga toʻgʻri kelib, texnikaning maʼlum bir sohasi boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassis⁴ ekanligini anglatadi, muhandis soʻzi ham bu soʻz isteʼmolga kirib kelgunga qadar xuddi shu maʼnoni bildirgan. Abdulla Qahhor ham zamon oʻzgarishi natijasida muhandislik sohasining yangi qirralari ochilib, xalq oʻrtasida keng tarqalayotganini ifodalash maqsadida mazkur soʻzdan foydalangan: *Men unga togʻ injeneri boʻlgan desam, “yoʻq, dada, bilmaysiz, men uchuvchi boʻlaman”, deydi. (“Oʻjar” hikoyasi).*

Doktorlik mazkur kasb nomi, yuqoridagi meditsina terminiga ham bogʻliq boʻlib, yuqorida aytilganidek, “tib” soʻzi bilan bogʻliq terminlar butun boshli davolash tizimini anglatgan, bu soʻz oʻrnida hozirda maʼno koʻlami anchagina qisqargan *tabiblik* soʻzi qoʻllangan, soha esa umumiy tarzda tabobat deb nomlangan, “shifokor; vrach kasbi”⁵. Abdulla Qahhor ijodida esa bu soʻz tibbiyot oliygohida oʻqishni taʼkidlash maqsadida qoʻllangan: *Norboʻtaning qizi doktorlikka oʻqiydi, mingta oshnasi bor desang-chi. (Mayiz yemagan xotin” hikoyasi).*

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. VI jildlik. Toshkent, 2023

² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. VI jildlik. Toshkent, 2023

³ Oxford dictionary. Great Britain. Web-site

⁴ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. VI tomlik.-Toshkent, 2023. 515-bet.

⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. VI tomlik.-Toshkent, 2023. 890-bet.

Artist (lot. *ars, artis* - kasb, hunar; *san'at*) bu san'at asarlarini tomoshabinlar uchun namoyish qiluvchi ijrochi⁶. Artist so'zi o'zi aslida dunyo miqyosida, asosan, har qanday san'at vakiliga ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida rassomlarga nisbatan ham bu so'z qo'llanilish holatlari uchraydi va to'g'ridan to'g'ri rassom ma'nosini beruvchi painter so'ziga sinonim hisoblanadi hamda san'atkor so'ziga yaqin turadi. Asarda esa bu san'atkor-aktrisa ma'nosida qo'llangan.

Bundan tashqari Abdulla Qahhorning boshqa hikoya va qissalari, Said Ahmad ijodida ham bu so'zni artistka shaklida ayollarga nisbatan ishlatilishini ham ko'rishimiz mumkin.

Chunki ikki ijodkor o'z ijodida ham yangi tuzumga o'tish va rivojlanish bosqichlarini tasvirlash maqsadida xotin-qizlarga alohida e'tibor, ularning haq-huquqlarini ko'rsatib berishga intilganlar.

Ayniqsa, Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi e'tiborga molikdir: *Izzatillaning singlisi artist - xaloyiqqa qarab muqom qiladi.*

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Qahhor so'z zargari har bir so'zni soatning kichik mexanizmlari kabi o'rinli qo'llay oladi, uning ijodida o'rinsiz mubolag'a, ortiqcha jumla kabi asar saviyasini tushuradigan holatlarni uchratmaymiz. Abdulla Qahhor asarlarini o'qib shunday fikrga keldimki, aynan, mazkur sevimli yozuvchimiz birinchilardan bo'lib, o'zbek tilida internatsional yoki baynalmilal so'zlarni hech qanday kamchiliksiz qo'llash mumkinligini isbotladi, tilimizning o'z qatlami doirasida cheklanib qolishi emas, balki uni yanada yangi so'zlar bilan boyishi lozimligini anglatdi.

REFERENCES

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildlik. Toshkent, 2023.
2. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
3. Qahhor A. Anor. Qissa va hikoyalar. Toshkent, 2005.
4. Oxford Dictionary. Oxford University. UK

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. VI tomlik.-Toshkent, 2023. 142-bet.